Mazkur qayta tayyorlash kursining o‘quv dasturi
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti Kengashining
2025-yil “3” dekabrdagi 11-son qarori
bilan tasdiqlangan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“SUD-TRANSPORT-TRASOLOGIYA EKSPERTIZASI”

fani bo‘yicha dual ta’lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O‘QUV DASTURI

Mutaxassislik – Sud ekspertlik faoliyati

Toshkent – 2025

I. O‘QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA’LIMDAGI O‘RNI

“Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” fani bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bundan keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagi “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlari (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi)ni qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar ro‘yxatini qamrab olgan.

II. O‘QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” fani bo‘yicha qayta tayyorlashning **maqsadi** - sud ekspertlarida transport-baholash ekspertiza sohasida chuqur nazariy bilimlarni hamda obyektlarni tadqiq etishda ilmiy asoslangan metodika va texnik vositalarni qo‘llay bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Shuningdek, sud ekspertlarida kasbiy bilimlarni chuqur o‘rganish va muntazam takomillashtirib borish, umumiy dunyoqarashni kengaytirish, kasbiy tezkorlikni shakllantirish (ekspertiza tadqiqotlarini darhol o‘tkazishga kirishish, nostandart ekspertiza vaziyatlariga tayyor bo‘lish va h.k.), faoliyati davomida tashabbus ko‘rsatishga va profilaktik tadbirlarni amalga oshirishga intilishni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

O‘quv fanining asosiy vazifalari:

- sud ekspertlari tomonidan transport-baholashning nazariy asoslarini tizimli ravishda egallashlarini ta’minlash;

- transport-baholash obyektlarining barcha turdagi asosiy metodik prinsiplarini o‘rgatish;

- turli obyektlarning ekspertiza tadqiqotlari metodikasini hamda sud-ekspertining jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatining metodlari bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Shuningdek, sud ekspertlarida jinoyatlarni ochish va tergov qilishda transport-baholash ekspertizalarining amaliy ahamiyati to‘g‘risidagi ishonchni tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar

Umumiy talablar:

- sud ekspertlari konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplarni va qoidalarni, qonun hujjatlari normalarini to‘g‘ri anglashi va qo‘llashni bilishi;

- sud ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyatining shakllanishi;

- ilmiy – tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatining takomillashishi;

- turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlikni shakllantirishi;

- sud ekspertlarining ushbu normalarni qo‘llay olish amaliyotini shakllantirish va takomillashtirishi;

Maxsus talablar:

– sud-transport-trasologiya ekspertizasining asoslari va o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak;

– sud-transport-trasologiya ekspertizasining umumiy va xususiy nazariyasining asoslari;

– sud-transport-trasologiya ekspertizalarini tayinlash va o‘tkazishdagi xatolar va ularni aniqlash hamda bartaraf etish yo‘llari;

– sud-transport-trasologiya ekspertizalarida tabiiy, texnik va boshqa maxsus kurslarning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari;

– sud ekspertiza muassasalarida mavjud transport-baholash ekspertizaning uslubiyoti va texnik-kriminalistik vositalarini bilishi va ulardan foydalana olishi zarur;

– sud ekspertining sud-transport-trasologiya ekspertizalarini o‘tkazishda protsessual qonunchilik normalarini qo‘llash sohasidagi asosiy muammolarini aniqlash;

– sud-transport-trasologiya ekspertizalarini o‘tkazish, natijalarini baholash va ekspert xulosasini shakllantirish;

– sud-ekpsertlik faoliyatiga oid ish hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish

ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

“Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” fanidan MAVZULAR REJASI

T/r	Mashg‘ulotlarning mavzusi	Shu jumladan,			
		Jami o‘ quv soatlari	Ma’ ruza	Seminar	Amaliy (laboratoriya)
1.	Izlar va ularni hosil bo‘lish mexanizmi haqidagi kriminalistik ta’limot	**34**	4	2	28
2.	To‘qnashuv natijasida transport vositalaridan hosil bo‘ladigan izlarni aniqlash va To‘qnashuv joyida transport vositalaridan qoladigan izlarning turlari va ularni aniqlash	**32**	2	2	28
3.	Yo‘l-transport hodisalari tasnifi va avtotransport vositalarining to‘qnashuv turlari va transport hodisasining metodologik asoslari hamda yo‘l - transport hodisasi mexanizmining xususiyatlari	**38**	4	2	32
Oraliq nazorat (test)		**2**			
4.	Avtotransport vositalarining joylashish koordinatalarini aniqlash imkoniyatlari	**36**	4	2	30
5.	To‘qnashuvda transport vositasining harakati yoki harakatsiz holatini aniqlash va avtotransport vositalarining to‘qnashuvi yoki to‘qnashuvi joyini aniqlash.	**30**	4	2	24
6.	Transport vositalarini ag‘darilishi bilan bog‘liq kompleks tadqiqotlar	**34**	4	2	28
7.	Sud transport - trasologiya ekspertizasi doirasida hal etiladigan boshqa turdagi masalalar	**34**	4	2	28
Yakuniy nazorat *(test)*		**2**			
Jami		**242**	**26**	**14**	**198**

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

1-Mavzu. Izlar va ularni hosil bo‘lish mexanizmi haqidagi kriminalistik ta’limot

“Trasologiya” tushunchasi. Transport-trasologiyasi. Iz. Transport mexanizmlari va ular qismlarini identifikatsiya qilish usullari va vositalarini ishlab chiqish. Iz hosil bo‘lishida ishtirok etadigan obyektlarning turlari. Bir obyektning boshqa obyekt bilan tasirlashish qobiliyatini aniqlovchi xususiyatlari. “Transport vositasi” tushunchasi. “Izlar” tushunchasi va turlari. Transport vositasi, yo‘l va turli to‘siqlardagi izlarga ko‘ra o‘zaro joylashish va harakat yo‘nalishini aniqlash uslubiyoti.

2-Mavzu. To‘qnashuv natijasida transport vositalaridan hosil bo‘ladigan izlarni aniqlash va To‘qnashuv joyida transport vositalaridan qoladigan izlarning turlari va ularni aniqlash

To‘qnashuv natijasida transport vositalaridan qoladigan izlar. Izlarning mexanizmlari. Izlarning yo‘nalishi. Qirilish, bo‘yoq yuqish va ishqalanish izlarining farqi. Izlarning o‘lchami. Iz hosil bo‘lishida ishtirok etadigan transport vositasining qismlari.

To‘qnashuv natijasida transport vositalaridan to‘qnashuv joyida qoladigan izlar. Qatnov qismida qolgan izlarning mexanizmlari. To‘qnashuv joyida qolgan izlarning yo‘nalishi. Qirilish, tormoz izlari, sidirilish izlarining farqi. Izlarning uzunligi. Iz hosil bo‘lishida ishtirok etadigan transport vositasining qismlari.

3-Mavzu. Yo‘l-transport hodisalari tasnifi va avtotransport vositalarining to‘qnashuv turlari va transport hodisasining metodologik asoslari hamda yo‘l - transport hodisasi mexanizmining xususiyatlari

Transport vositalari to‘qnashuvlari turlarining sud-avtotexnik ekspertizasi talablari bo‘yicha tasniflanishi (transport vositalarining harakat yo‘nalishi, transport vositalarining o‘zaro yaqinlashishi xususiyatlari, transport vositalarining bo‘ylama o‘qlarining o‘zaro nisbiy joylashishi, transport vositalarining urilish vaqtidagi o‘zaro ta’sirlashish xususiyati, urilishning og‘irlik markaziga nisbatan yo‘nalishi hamda urilish joyi bo‘yicha).

Bir yo‘nalishda va qarama-qarshi yo‘nalishdan harakatlanib kelayotgan transport vositalari to‘qnashuvlari, sud-avtotexnik ekspertizasi talablari bo‘yicha tasniflanishi (transport vositalarining harakat yo‘nalishi, transport vositalarining o‘zaro yaqinlashishi xususiyatlari, transport vositalarining bo‘ylama o‘qlarining o‘zaro nisbiy joylashishi, transport vositalarining urilish vaqtidagi o‘zaro ta’sirlashish xususiyati, urilishning og‘irlik markaziga nisbatan yo‘nalishi hamda urilish joyi bo‘yicha).

4-Mavzu. Avtotransport vositalarining joylashish koordinatalarini aniqlash imkoniyatlari

Avtotransport vositalarining joylashish koordinatalarini aniqlash imkoniyatlari. To‘qnashuv natijasida transport vositalarining olgan texnik shikastlari bo‘yicha ularning o‘zaro harakat yo‘nalishlarini aniqlash. To‘qnashuvdan keyingi to‘xtagan joylari bo‘yicha to‘qnashuvdan keyingi harakat yo‘nalishlarini aniqlash.

5-Mavzu. To‘qnashuvda transport vositasining harakati yoki harakatsiz holatini aniqlash va avtotransport vositalarining to‘qnashuvi yoki to‘qnashuvi joyini aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini transport vositalaridagi shikastlanishlar bevosita solishtirish yo‘li bilan aniqlash. To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini iz hosil qiluvchi obyekt va uning akslarining og‘ish burchaklari bo‘yicha aniqlash. To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini o‘zaro ta’sirlashgan ikki juft sohalarning joylashishiga ko‘ra aniqlash. To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini boshqa transport vositasining qattiq qismlari kirib qolish yo‘nalishi bo‘yicha aniqlash.To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini hisoblash yo‘li bilan aniqlash**.** To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini o‘zaro ta’sirlashgan sohalarning bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlardagi deformatsiyalanish jarayonidagi siljishlari bo‘yicha aniqlash. To‘qnashuv vaqtida transport vositalarining yo‘l o‘qiga (qatnov qismining chetlari) nisbatan joylashishini aniqlash.

6-Mavzu. Transport vositalarini ag‘darilishi bilan bog‘liq kompleks tadqiqotlar

Ag‘darilish mexanizmini tadqiqotlari jarayonidagi asosiy ekspertiza vazifalari. Ag‘darilish sabablari va uni sodir bo‘lishiga imkon beruvchi sharoitlar. Haydovchining harakatlariga bog‘liq sharoitlar. Yo‘l bilan bog‘liq sharoitlar. Transport vositalarining holati bilan bog‘liq sharoitlar. Transport vositalari ag‘darilib ketishining mexanizmi. Ag‘darilib ketgan transport vositalarining ekspertiza tadqiqotlari. Hodisa sodir bo‘lgan joyning ekspertiza tadqiqotlari.

7-Mavzu. Sud transport - trasologiya ekspertizasi doirasida hal etiladigan boshqa turdagi masalalar.

Transport-trasologiyada hal etiladigan savollarni ilm-fan yuturlaridan kelib chiqib hal etish usullari. Transport vositalarida va yo‘llarda o‘rnatilgan tasvirga olish apparatlari yordamida olingan tasvirlar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish. Trasologiya ekspertizasi savollarini elektron dasturlar yordamida hal etish.

IV. MA’RUZA VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARI BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

“Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” fanidan o‘tkaziladigan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida tinglovchilar (sud ekspertlari) o‘z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo‘yicha o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi (sud ekspertlari) tomonidan amaliy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqea-hodisalari bilan bog‘lab borish katta ahamiyatga ega. Seminar mashg‘ulotlarida sud-ekspertlari transport-baholash ekspertiza fanining qoidalari va ushbu turdagi ekspertizalarni o‘tkazish metodikasi haqida bilimlarini kengaytirib, ular haqida o‘z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko‘nikmalari, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib borishadi. Buning uchun o‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlar yaratishi lozim bo‘ladi.

V.AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

O‘quv dasturining nazariy qismi Institutda, amaliy qismi esa X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi “Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi” maxsus kabinetlari va tadqiqot laboratoriyalarida, tashqari joyda, ekspertiza tayinlangan ish bo‘yicha amaldagi obyektlarida hamda boshqa joylarda o‘tkazilishi mumkin.

Mashg‘ulotda amaliy vazifalar muhokama etiladi va Sud-transport-trasologiya ekspertizalari turlari bo‘yicha ekspert xulosalari mustaqil tuziladi.

VI. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta’lim jarayonida sud eksperti o‘quv dasturida belgilangan masalalarni o‘rganishi uchun tavsiya qilingan adabiyotlar, SATE laboratoriyasining ekspertlik amaliyoti bilan tanishishi hamda kamida 5ta ekspert xulosasi tayyorlab taqdim qilishi zarur.

“Sud-transport-trasologiya ekspertizasi” fani bo‘yicha o‘quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o‘qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta’lim uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta’limda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

– maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

– ekspertiza xulosalarini mustaqil ravishda tuzish.

Mustaqil ishlarning taxminiy mavzulari:

Transport mexanizmlari va ular qismlarini identifikatsiya qilish usullari va vositalarini ishlab chiqish.

Iz hosil bo‘lishida ishtirok etadigan obyektlarning turlari.

Bir obyektning boshqa obyekt bilan ta’sirlashish qobiliyatini aniqlovchi xususiyatlar.

Transport vositasi, yo‘l va turli to‘siqlardagi izlarga ko‘ra o‘zaro joylashish va harakat yo‘nalishini aniqlash uslubiyoti.

To‘qnashuv paytida transport vositalarining to‘qnashish (o‘zaro joylashishi) burchagi va urilish yo‘nalishini aniqlash

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini transport vositalaridagi shikastlanishlar bevosita solishtirish yo‘li bilan aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini iz hosil qiluvchi obyekt va uning akslarining og‘ish burchaklari bo‘yicha aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini o‘zaro ta’sirlashgan ikki juft sohalarni joylashishiga ko‘ra aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini aniqlash. Transport vositalari to‘qnashgan vaqtdagi urilish yo‘nalishini aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini birlamchi trassalar bo‘yicha aniqlash**.**

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini bevosita ta’sirlashishning ketma-ketlikda qoldirilgan izlariga ko‘ra aniqlash**.**

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini boshqa transport vositasining qattiq qismlari kirib qolish yo‘nalishi bo‘yicha aniqlash.

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini hisoblash yo‘li bilan aniqlash**.**

To‘qnashish (o‘zaro joylashish) burchagini o‘zaro ta’sirlashgan sohalarning bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlardagi deformatsiyalanish jarayonidagi siljishlari bo‘yicha aniqlash.

To‘qnashuv vaqtida transport vositalarining yo‘l o‘qiga (qatnov qismining chetlari) nisbatan joylashishini aniqlash.

To‘qnashuv vaqtida transport vositasining holatini aniqlash zarurati.

Transport vositasi g‘ildiraklarining hodisa sodir bo‘lgan joydagi izlari.

Transport vositasidagi izlar va shikastlanishlar.

Transport vositasining hodisadan keyingi joylashishi va holati.

Hodisa sodir bo‘lgan joydagi uloqtirib yuborilgan obyektlarning holati va joylashishi.

VII. REFERAT TAYYORLASH BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

O‘quv kursining yakunida tinglovchi mutaxassislik doirasida tanlangan mavzu bo‘yicha malakaviy ishini (referatni) himoya qiladi. Referat kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak.

Malakaviy ish (referat) yozilishida qo‘yiladigan texnik talablar:

- 15–20 bet hajmdan kam bo‘lmasligi;
- Times New Roman, 14 shriftda;
- 1.5 intervalda, har bir bet yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo‘lishi;
- matnning har bir qatorida so‘zlar ko‘chirilmasdan tugallangan bo‘lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar malakaviy ishini (referatni) umumiy hajmiga kirmaydi.

Tinglovchi tomonidan referat uchun amaliy mashg‘ulotlari olib borilayotgan tashkilotdan biriktirilgan amaliyot rahbarlaridan tashqi taqriz olinishi lozim.

Malakaviy ish (referat) tinglovchi tomonidan shaxsan tayyorlanishi shart. Tinglovchi referatni yozishda ilmiy izlanishlar olib borish etikasiga qat’iy rioya etishi, jumladan plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek soxta iqtiboslar keltirishga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Malakaviy ishda (referat) qog‘oz yoki elektron ko‘rinishda nashr qilingan o‘zga matndan olingan manbaaga hech qanday havola qilmagan holda ishlatish yoki olingan manbaaga havola qilingan bo‘lsada, lekin o‘zlashtirishlarning hajmi va xususiyati ishning mustaqil yozilganligiga shubha uyg‘otadigan darajada o‘zlashtirilgan bo‘lsa plagiat deb topiladi. Bunday vaziyatda malakaviy ishga (referat) 0 (nol) ball bilan baholanadi.

Elektron portfolio ko‘rsatkichlari va onlayn test sinovlari natijalari asosida tinglovchilarga malakaviy ishini (referatni) himoya qilishga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi kurs yakuni bo‘yicha yakuniy nazoratni o‘tkazuvchi komissiya a’zolari tomonidan referat mavzusining dolzarbligi, referatni yoritishda tinglovchining mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi, tinglovchining referat himoyasiga tayyorligi, xulosa va tavsiyalar asoslanganligi, referatda adabiyotlardan foydalanilganligi kabi mezonlarga asosan100 ballik tizim asosida butun sonlar bilan baholanadi. Referat himoyasi uchun har bir tinglovchiga 10-15 daqiqa vaqt beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasi bo‘yicha to‘plangan ball belgilangan umumiy ballning 56 foizi va undan ortiq bo‘lganda tinglovchi “qoniqarli” baholangan deb hisoblanadi. Umumiy ballning 55 foizi va undan kam ball olgan tinglovchiga 3 kun ichida qayta himoyaga kirishiga ruxsat beriladi.

Malakaviy ish (referat) himoyasida qoniqarsiz baho olgan tinglovchilar kurs yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy nazorat imtihoniga kiritilmaydi.

VIII. O‘QUV DASTURINI O‘ZLASHTIRISH VA TA’LIM JARAYONLARINI TA’MINLASHGA MO‘LJALLANGAN O‘QUV VA METODIK MATERIALLAR

O‘quv jarayonini tashkil etish:

O‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta’lim hamda o‘quv mashg‘ulotlarining interfaol “aqliy hujumlar”, “keys stadi”, “jamoa bo‘lib ishlash” hamda bilim va ko‘nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O‘quv materiallari:

ma’ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo‘yicha o‘quv qo‘lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.z).

O‘quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar;

amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O‘quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta’minoti:

shaxsiy kompyuter – o‘qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;

multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

IX. YAKUNIY NAZORAT

O‘quv dasturining barcha mavzulari bo‘yicha yakuniy nazorat test shaklida o‘tkaziladi va baholanadi.

X. ASOSIY VA QO‘SHIMCHA O‘QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA BOSHQA ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

O‘zbekiston Respublikasining «Sud ekspertizasi to‘g‘risida»gi 2010-yil 1-iyun qonuni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – 22–son. – 173-m.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 24.10.2025-y., 03/25/1092/0976-son);

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son);

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son);

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-m. (Ushbu Farmon «Xalq so‘zi» gazetasining 2017-yil 8-fevraldagi 28 (6722)-sonida e’lon qilingan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 270-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida” 180-son qarori.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Методической пособие для экспертов по транспортно-трасологической экспертизе, РЦСЭ, Ташкент, 2017 г.

2. Транспортно-трасологическая экспертиза по делам о дорожно транспортных происшествиях (диагностические исследования), Выпуск 2. // Методическое пособие для экспертов, следователей и судей) Н.М.Кристи и В.С.Тишин. – М., 1988г.

3. Судебная автотехническая экспертиза. Ч.2. // Под ред. В.А. Илларионова. – М., ВНИИСЭ, 1980.

4. Судебная транспортно-трасологическая экспертиза (методическое пособие для экспертов), Ю.Г.Корухов. – М., 1977.

5. Транспортно-трасологическая экспертиза по делам о дорожно транспортных происшествиях (диагностические исследования), Выпуск 1. // Методическое пособие для экспертов, следователей и судей. Г.Л.Грановский и др., – М., 1988.

Internet saytlar va davriy nashrlar:

1. www.bilim.uz.

2. http:// lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);